

PEDAGOGIK MAHORAT

9
2023



ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

9-son (2023-yil, oktabr)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2023

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2023, № 9

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY‘ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

Mas’ul kotib: Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Rasulov To‘lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)

Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti

Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta‘limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Romm Tatyana Aleksandrovna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti

Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta‘lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor

Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)

Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Chariyev Irgash To‘rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ro‘ziyeva Dilnoza Isomjonovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)

To‘xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori, dotsent

Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jumaev Rustam G‘aniyevich, siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nurulloev Firuz No‘monjonovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Navruz-Zoda Layli Baxtiyorovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО

Научно-теоретический и методический журнал

№ 9, 2023

Решением Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан от 29 декабря 2016 года журнал включён в перечень изданий, рекомендованных для публикации научных результатов статей по направлениям «Педагогика» и «Психология».

Журнал основан в 2001 году.

Журнал выходит 12 раз в год.

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

Учредитель: Бухарский государственный университет

Адрес редакции: 200117, Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Главный редактор: Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор

Ответственный редактор: Сайфуллаева Нигора Закиралиевна – доктор философии педагогических наук (PhD)

Хамидов Обиджон Хафизович, доктор экономических наук

Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор

Навруз-заде Бахтиёр Нигматович, доктор экономических наук, профессор

Махмудов Мэлс Хасанович, доктор педагогических наук, профессор

Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор

Расулов Тулкин Хусенович, доктор физико-математических наук, профессор

Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)

Андрюченко Елена Васильевна (Институт физико-математического, информационного и технологического образования НГПУ, Новосибирск, Россия)

Ромм Татьяна Александровна (Институт истории, гуманитарного, социального образования ФГБОУ ВО НГПУ, Новосибирск, Россия)

Чудакова Вера Петровна, кандидат психологических наук (Национальная академия педагогических наук Украины, Украина)

Хамроев Алижон Рузикулович, доктор педагогических наук (DSc), доцент

Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор

Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор

Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)

Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор

Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор

Ураева Дармоной Саиджановна, доктор филологических наук, профессор

Дурдиев Дурдимурад Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор

Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор

Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор

Чариев Иргаш Тураевич, доктор педагогических наук, профессор

Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор

Шомирзаев Махматмурод Хурамович, доктор педагогических наук, профессор

Рузиева Дилноза Исомжоновна, доктор педагогических наук, профессор

Курбонова Гулноз Незматовна, доктор педагогических наук (DSc)00

Тухсанов Кахрамон Рахимбоевич, доктор филологических наук, доцент

Назаров Акмал Мардонович, доктор философии психологических наук (PhD), доцент

Жумаев Рустам Ганиевич, доктор философии политических наук (PhD), доцент

Нуруллоев Фируз Нумонжонович, доктор философии педагогических наук (PhD)

Навруз-заде Лайли Бахтиёровна, доктор философии экономических наук (PhD)

PEDAGOGICAL SKILLS

The scientific-theoretical and methodical journal

№ 9, 2023

By the decision of the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 29, 2016, the journal was included in the list of publications recommended for publishing scientific results of articles in the areas of «Pedagogy» and «Psychology».

The journal was founded in 2001.

The journal is published 12 times a year.

The journal is registered by the Bukhara Department of the Agency for Press and Mass Communication of Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

Founder: Bukhara State University

Publish house: 200117, Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

EDITORIAL BOARD:

Chief Editor: Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.

Editor: Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Nigora Z. Sayfullaeva

Doctor of Economics Sciences Prof. Obidjon X. Xamidov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzokboy Sh. Begimkulov

Doctor of Economics Sciences, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Mels Kh. Mahmudov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holboy I.Ibragimov

Doctor of Physical and Mathematical Sciences (DSc), Prof. Tulkin Kh. Rasulov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Andrienko Yelena Vasilyevna (Russia)

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Romm Tatyana Aleksandrovna (Russia)

Candidate of Psychology, Vera P. Chudakova (Kiev, Ukraina)

Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Doc. Alijon R. Hamroev

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof.M.Mahmudova

Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)

Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev

Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R.Amanov

Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva

Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev

Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov

Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov

Doctor of Pedagogical Science, Prof. Irgash T. Chariev

Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Maxmatmurod X. Shomirzaev

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Dilnoza I. Ruzieva

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Gulnoz N. Qurbonova

Doctor of Philology, Doc. Qahramon R.Tuxsanov

Doctor of Psychology, Doc. Akmal M. Nazarov

PhD in Political Sciences, Doc. Rustam G.Jumaev

PhD in Pedagogical Sciences, Firuz N. Nurulloev

PhD in Economics Sciences, Layli B. Navruz-zade

MUNDARIJA

№	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
DOLZARB MAVZU			
1.	<i>ELOV Ziyodullo Sattorovich</i>	Suitsidial xulq-atvorning zamonaviy psixologiyada o'rganilishi: tahlillar va nazariyalar	8
2.	<i>QODIROV Obid Safarovich</i>	Tarbiyasi qiyin o'smirlar xulq-atvori bilan bog'liq ijtimoiy-psixologik muammolar	17
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA			
3.	<i>AXADOVA Komila Said qizi</i>	Raqamlashtirish jarayonida muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari	22
4.	<i>ESHMURADOV Olmosbek Elamanovich</i>	Oila barqarorligi uchun o'smir o'gil bolalarda oila kompetentini shakllantirish	30
5.	<i>ISMATOVA Dilafruz Tuymuratovna, BO'RONOVA Kamola Baxtiyorovna</i>	Muammoli oilalarga psixologik xizmatni tashkil etishning o'ziga xos jihatlari	34
6.	<i>ISMOILOVA Nurjaxon Zuxuriddinovna</i>	Talabalarda stressga barqarorlik va o'z-o'zini baholashning psixologik bog'liqligi	38
7.	<i>JULMATOVA Saodat Jur'atjonovna</i>	Musiqa psixologiyasi tarixi	43
8.	<i>MAMIROV Azim Холмурзаевич</i>	Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirish sifatlarini shakllantirish	49
9.	<i>MIRZOYEV Dilshod Po'lotovich</i>	Oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislik fanlarni innovatsion metodlar orqali o'qitishni takomillashtirish	53
10.	<i>MIRZAAXMEDOVA Gulshanoy Мансуржон қизи</i>	Bo'lajak tarix o'qituvchilarida analitik tafakkurni shakllantirishning zarurati	58
11.	<i>OLIMOVA Firuza Aslonovna</i>	Bo'lajak pedagoglarda stressli holatlarga barqarorlikni shakllantirishining ijtimoiy-psixologik omillari	63
12.	<i>QULIYEVA Shahnoza Halimovna</i>	Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda ta'lim mazmunini tanlash tamoyillari	69
13.	<i>RASULOV Xaydar Raupovich, MUZAFFAROVA Mohinur Umarovna</i>	Maktab o'quvchilarining deduktiv tafakkurini rivojlantirish yo'llari haqida	74
14.	<i>RUSTAMOV Shavkat Shuxratovich</i>	Talabalarni innovatsion kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari	81
15.	<i>SHOYMARDONOVA Muxsina Raxmatovna</i>	Maktab o'qituvchilari orasida innovatsion faoliyatga ijobiy munosabatni rivojlantirishning pedagogik kompetensiyalari	87
16.	<i>TO'YMURODOV Abdurahmon Shuhrat o'g'li</i>	Favqulodda holatlarda harbiy xizmatchilarda kasbiy so'nishni keltirib chiqaruvchi omillar va ularning klassifikatsiyasi	92
17.	<i>ZARIPOVA Gulbahor Kamilovna</i>	Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchi shaxsini shakllanishida pedagogik yondashish va uning kasb egallashida yetakchi ahamiyati	98
18.	<i>ДАУЛЕТОВА Гузал Муратбаевна</i>	Ўсмирларнинг ҳарбий академик лицей ҳаётига мослашишининг ижтимоий - психологик хусусиятлари ва мезонлари (“Темурбеклар мактаби” ҳарбий академик лицейи мисолида)	107
19.	<i>ИНОҚОВ Бахтиёр Рахимжонович</i>	Тезкор-кидирув ходимларида муваффақиятга эришиш мотивлари ривожланишининг психологик омиллари	113

20.	<i>МУСАЕВА Нодира Низомовна, МУСАЕВА Нафиса Азимжоновна, ЛИТВИНА Виктория Богдановна</i>	Технология модульного обучения, основанная на предметно-деятельностном подходе	118
21.	<i>ОМОНОВ Азиз Носир ўгли</i>	Ички ишлар органи ходимларида ижтимоий интеллектнинг илмий-психологик асослари	124
22.	<i>РАХИМОВА Индира Игоревна</i>	Влияние ценностей на социальную активность	129
23.	<i>САИДВАЛИЕВА Шодия Рихсихужа кизи</i>	Концептуально-системообразующие подходы в исследовании этнического самосознания	133
24.	<i>ТАИРОВА Мадинабону Бахтияровна</i>	Бўлажак тарбиячиларда касбий фаолиятларини ривожлантириш муаммосининг назарий манбаларда ёритилиши	138
25.	<i>УРИНОВА Шарофат Ахтамовна</i>	Талабалар клиник тафаккурини шакллантиришда вазиятли топшириқлардан фойдаланиш	143
26.	<i>ҲАКИМОВ Жамшид Октямович</i>	“Информатика ва АКТ” курсини ўқитишда инновацион шакллар ва таълим тизимини қуриш тамойиллари	147
27.	<i>SATTAROVA Gulnora Ikromovna</i>	Jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan o‘smirlar hissiy va irodaviy sifatlarining korrelyatsiasi	151
28.	<i>НИКМАТОВ Ақмал Sadulloevich</i>	Nevrolog-shifokorlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligi rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari	158
МАКТАБГАЧА ВА БОШЛАГ‘ИЧ ТА‘ЛИМ			
29.	<i>ADIZOVA Nigora Baxtiyorovna</i>	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining divergent tafakkurini rivojlantirishda ta‘lim-tarbiyaning ahamiyati	163
30.	<i>ADIZOVA Nodira Baxtiyorovna</i>	Boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilarni kamol toptirishda muammoli ta‘lim texnologiyasining o‘rni	168
31.	<i>AXMEDOVA Zarrina Jamilovna</i>	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni moslashuvining pedagogik-psixologik xususiyatlari	173
32.	<i>JUMAYEV Umedjon To‘raqulovich</i>	Art-terapiya vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning kreativ tafakkurini rivojlantirishning nazariy asoslari	179
33.	<i>QAYIMOV Laziz Mirzo o‘g‘li</i>	Boshlang‘ich sinflarda ertaklarni o‘qitish asosida o‘qib va tinglab tushunish malakalarini takomillashtirish	184
34.	<i>SANOYEV G‘aybullo Abduraxmonovich</i>	Boshlang‘ich sinflarda ajdodlar merosidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	190
FILOLOGIYA VA TILLARNI O‘QITISH			
35.	<i>ALMAMATOVA Manzura Shavkatovna</i>	Pedagogical basis of motivation and attitude in learning a foreign language	195
36.	<i>BAKAYEVA Rayxon Izatovna</i>	O‘qish savodxonligi funksional savodxonlikni shakllantirishning asosi sifatida	199
37.	<i>DILOVA Nargiza Gaybullayevna, BAKAYEVA Rayxon Izatovna</i>	Funksional o‘qish savodxonligini rivojlantirishda matn turlari ustida ishlash usullari	204
38.	<i>ShAROPOV Sherzod Shirinboy o‘g‘li</i>	Kooperatsiya asosida til o‘rganish xususiyatlari	213
39.	<i>РАХИМОВА Муҳаббат Эргашевна</i>	О приёме сопоставления текстов на уроке литературы	217
ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISH			
40.	<i>QAHHOROV Siddik Qahhorovich, JAMILOV Yusuf Yunus ugli</i>	Results of research on the use of software to improve the quality of education	223
41.	<i>RAKHIMOV Nasriddin Nomozovich, BEGMATOV Akram Khasanovich, HAQNAZAROVA</i>	Methods of teaching trigonometric equations and inequalities using the properties of geometric shapes	230

	<i>Khurshida Kenjayevna</i>		
42.	<i>SUYUNOVA Yulduz Axmatovna</i>	Texnik mexanika fanida talabalarning amaliy bilimlarini rivojlantiradigan metodologik yondashuv va tamoyillar tavsifi	236
43.	<i>JUMAYEV Jo'ra, SHAMSIDDINOVA Maftunabonu Ulug'bek qizi</i>	Aniq integral mavzusini o'qitishda Python grafik imkoniyatlaridan foydalanish	240
44.	<i>XUSANOV Zafar Jo'raqulovich</i>	Methodological features of teaching Physics at the University	246
45.	<i>TO'RAYEV Rasul Nortojoyevich</i>	Interfaol metodlar asosida matritsa va chiziqli tenglamalar sistemasining kimyoga tatbiqini o'rganish	250
46.	<i>KARSHIBOYEV Shavkat Esirgapovich, MAXMUDOV Furqat Jumaboevich</i>	Pedagogika oliy o'quv yurtlarida fizika fanidan laboratoriya darslarida LabView dasturiy vositasidan foydalanishning afzalliklari	256
JISMONIY MADANIYAT VA SPORT			
47.	<i>ЯРАШЕВ Комил Дехконович</i>	Методические подходы к решению проблемы формирования управленческих компетенций студентов по специальности физическая культура и спорт	262
48.	<i>XASANOV Ilyos To'ychiyevich</i>	Kurashchilarni texnik harakatlarga o'rgatishda raqamli texnologiyalarni qo'llash metodikasi	266
SAN'AT			
49.	<i>MAMATOV Dilshod Qodirovich</i>	Talabalarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishda chizmachilik fanining o'rni	271
50.	<i>TURAYEV Xumoyiddin Abdug'afforovich</i>	Talabalarning loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish	276
51.	<i>РЕЖАМЕТОВА Нулуфар Илхамовна</i>	Педагогическая диагностика музыкальной компетентности дошкольников на основе традиций и новаций	280
IQTISODIY TA'LIM VA TARBIYA			
52.	<i>SAYFULLAEVA Nigora Zakiraliyevna</i>	Prerequisites for strengthening the integration of education, science and production in the conditions of regional universities	284
MA'NAVIYAT VA TARBIYA			
53.	<i>SULTONOV Akram Ikromovich</i>	Tarbiyasi og'ir o'smirlarda milliy axloqiy qadriyatlarimizga xos sifatlarni shakllantirishda oila, maktab va mahalla hamkorligi	289
54.	<i>TOSHEVA Dildora Iskandarovna, AHMADOVA Mahbuba Shavkat qizi</i>	Shaxs tarbiyasida Alisher Navoiy asarlarininig o'rni	295
55.	<i>SAIDOVA Yulduz Zamon qizi</i>	Barkamol avlod ma'naviy tarbiyasining muhim tarkibiy qismi	302
56.	<i>ХАЙРУЛЛАЕВ Чору Казакович</i>	Баркамол инсон тарбиясида Ибн Сино маънавий меросининг ахамияти	307
PEDAGOGIK TA'LIMOTLAR TARIXI			
57.	<i>MAXMUDOVA Muyassar Maxmudovna</i>	Iogan Genrix Pestalossining pedagogik nazariyasining ahamiyati	312

TALABALARNI INNOVATSION KOMPETENLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Rustamov Shavkat Shuxratovich,

Buxoro davlat universiteti

Psixologiya va sotsiologiya kafedrası dotsenti,

p.f.f.d (PhD)

Maqolada jamiyatda dolzarb bo'lib borayotgan talabalarning innovatsion kompetentligini shakllantirish muammosi ko'rib chiqiladi. Bu iqtisodiyot va ishlab chiqarishning innovatsion rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, bu zamonaviy jamiyatdan innovatsiyalarni idrok etish va ishlab chiqarishga yuqori darajadagi tayyorgarlikni talab qiladi. Talabalarni innovatsion kompetentligi muammosining hozirgi holati tahlil qilinadi va innovatsiya samaradorligini ta'minlaydigan shaxsiy fazilatlar ko'rib chiqilgan. Ta'lim muassasasida innovatsion faoliyatda faol ishtirok etuvchi va o'qituvchilar va talabalardir. Shuningdek, innovatsion kompetentlik va innovatsion faoliyatga qiziqish ko'rsatmaydigan shaxslarning shaxsiy xususiyatlarini o'rganish natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: *innovatsion faoliyat, kompetentlik, individuallik, metodologiya, xarakter, ijodkorlik, ijtimoiy psixologik xususiyatlar, kasbiy faoliyat, global kompetentlik.*

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

В статье рассматривается проблема формирования инновационной компетентности студентов, которая становится всё более актуальной. Это связано с инновационным развитием экономики и производства, что требует от современного общества высокого уровня подготовки к восприятию и производству инноваций. Анализируется современное состояние проблемы инновационной компетентности студентов, и рассматриваются личностные качества, обеспечивающие эффективность инноваций. Активными участниками инновационной деятельности в образовательном учреждении являются и преподаватели, и студенты. Также представлены результаты исследования личностных особенностей лиц, не проявляющих инновационной компетентности и интереса к инновационной деятельности.

Ключевые слова: *инновационная деятельность, компетентность, индивидуальность, методология, характер, креативность, социально-психологические особенности, профессиональная деятельность, глобальная компетентность.*

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE DEVELOPMENT OF INNOVATIVE COMPETENCY OF STUDENTS

The article examines the problem of the formation of innovative competency of students, which is becoming more and more relevant. This is due to the innovative development of the economy and production, which requires a high level of preparation for the perception and production of innovations from modern society. The current state of the problem of innovative competency of students is analyzed and personal qualities that ensure the effectiveness of innovation are considered. They are active participants in innovative activities in the educational institution and are teachers and students. The results of the study of the personal characteristics of individuals who are not interested in innovative competence and innovative activities are also presented.

Key words: *innovative activity, competence, individuality, methodology, character, creativity, social psychological characteristics, professional activity, global competence.*

Kirish. Ta'lim muassasalarida yoshlarning shaxsiy rivojlanishi ularning mustaqil fikrlash, ijodkorlik, faollik, munosabatlarining chuqurlashib hamda boyib borishi, xarakter hamda dunyoqarashlarining turg'unligi, o'z-o'zini nazorat qilish va tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojlarning shakllanishi kabi holatlar bilan tavsiflanadi. Bo'lajak kasb egalari uchun ta'lim muassasalarida ta'lim olish jarayoni – bu insonda mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishda ahamiyatli sanalgan kasbiy bilim, sifat, kompetentlik va mezonlar asosida rivojlantirish hamda o'z-o'zini takomillashtirishning eng maqbul davridir. Ta'lim oluvchilar ushbu jarayonda bilimlarni jamlash, saqlash, uzatish, ularning mantiqiy tuzilmasini yaratish va

istiqbolda kasbiy faoliyatini tashkil etishda ulardan samarali foydalanish kabi holatlarni o'zida mujassam ettiradi. Global o'zgarishlarga qarshi islohotlar amalga oshirilayotgan sharoitda talabalarda innovatsion kompetentli yoshlarning mavjudligi davr taqozosi hisoblanib, o'z shaxsiy dunyoqarashiga ega bo'lgan insonlarga jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladigan ko'plab loyihalarni ishlab chiqishga qodir ekanligini ko'rsatadi hamda mavzuning dolzarbligini belgilab beradi. Ilmiy adabiyotlarning tahliliga qaraganda, kasbiy kompetentlikni aniqlashga doir tadqiqotchilar tomonidan turli yondashuvlar mavjud.

Adabiyotlar tahlili. Jumladan, Yevropa va amerikalik tadqiqotchilar kasbiy kompetentlikni amaliy jihatlarini, ya'ni muhitga ta'sir etuvchi (I.Borg, M.Muller, T.Staufenbiel), vazifani muvaffaqiyatli uddalashga xizmat qiluvchi bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi (M.Perlmutter, M.Kaplan, L.Nyquist); faoliyat tuzilmasidagi alohida xatti-harakatlarni amalga oshirishni ta'minotchisi (G.Schreder, M.Vorweg), amaliyotga tatbiq etiladigan usullarni bilish jarayonlariga qo'llovchi (S.P.Dyrstra, S.Dollinger) sifatida o'rganishgan.

Rossiyalik olimlardan L.I. Ansiferova, D.N. Zavalishina, Ye.F. Ribalko, N.V. Kuzmina, N.V. Yakovleva, A.K. Markova, M.A. Choshanov, Yu.V. Vardanyan, T.V. Zamorskaya, L.V. Temnova, O.A. Anisimova, S.S. Sedova, A.A. Derkach, V.G. Zazikin, I.A. Zimnyaya, Yu.G. Tatur, A.I. Yushko, A.I. Subetto, Z.M. Albekova va boshqalar tomonidan so'nggi yillarda kompetentlik va kompetentsiya masalalariga ilmiy yondashuvlarni uchratish mumkin.

Professor N.A. Muslimov bu borada keng qamrovli tadqiqotlarni olib borib, kasbiy kompetentlikni yettita turga bo'lib o'rganadi. Olimning fikricha, global kompetentlik; ijtimoiy-madaniy kompetentlik; ijtimoiy faoliyatga oid kompetentlik; axborot olishga kompetentlik; kommunikativ kompetentlik; o'quv-bilishga oid kompetentlik; amaliy faoliyatga oid kompetentlik turlari mavjud bo'lib, fikrimizcha, bular shaxs kompetentsiyalari, kasbiy individual xislatlari va sifatlarini aniqlovchi mezon bo'lib xizmat qilishi mumkin.

G.K.Ushakov fikricha, talabalarni innovatsion kompetentligini psixologik munosabatlar tashkil qiladi. Psixologik munosabat deganda, talabalarining jamoa o'rtasida o'zaro hamjihatlikni tashkil etishdan iborat psixologik usullar va malakalardan o'z o'rnida samarali foydalanish tushuniladi.

Uzluksiz ta'lim jarayonida kompetentlikni shakllantirish tizimiga qo'yiladigan talablar Oliy ta'limning bakalavriat bosqichida qo'yiladigan talablar majmuasi:

- 1) Global kompetentlik. Mustaqil hayot yo'lini topa olishi, jamiyatdagi roli va o'rnini anglab yetishi.
- 2) Ijtimoiy-madaniy kompetentlik. Chuqur o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilim va faoliyat tajribasining doirasini kengaytirish.
- 3) Ijtimoiy-faoliyatga kompetentlik. Fuqarolik, ijtimoiy-mehnat sohasidagi bilim va tajribalarni egallash.
- 4) Axborot olishga kompetentlik. Audio-video vositalari va axborot texnologiyalari yordamida mustaqil izlanish.
- 5) Kommunikativ kompetentlik. O'zaro munosabatlar, ularning usullarini o'zlashtirish,
- 6) O'quv-bilishga kompetentlik. Maqsadni ko'ra bilish, faoliyatni rejalashtirish, uning mazmunini tahlil qilish bo'yicha bilim va malakalar majmuasini egallash.
- 7) Amaliy faoliyatga kompetentlik. Harakat va amallarni yangi vaziyatlarda qo'llay olish, yangi axborotlar ichida tez yo'nalish olish ko'nikmalarini shakllantirish.
- 8) Global bilimlarga egalik. O'z kasbi doirasida yetarli darajadagi bilimga ega bo'lish.
- 9) Fanlarni integrasiyalay olishlik. Zaruriy bilimlarni o'zlashtirishda o'qitiladigan barcha fanlarning bir-biri bilan o'zaro aloqadorligini ta'minlash.
- 10) Konstruksiyalay olishlik. Obyekt va jarayonlarning tuzilishi va o'zaro joylashuvlarini tuza bilishning tizimli faoliyati bo'yicha malakalarga ega bo'lish.
- 11) Modellashtira olishlik. Biror-bir hodisa, jarayon yoki obyektlar tizimini ideal yoki real modelini qurish va uni o'rganish orqali ularning xususiyatlarini aniqlash.
- 12) Loyihalay olishlik. Obyekt va jarayonlarni rejalashtirish, modelini tuzish, ularning xususiyatlarini aniqlash.
- 13) Bashorat qila olishlik. Manbalar asosida istiqbolda aniqlash lozim bo'lgan natija xususida oldindan fikr yuritish.
- 14) Motivasion xislatlarga egalik. Kasbiy faoliyatni samarali tashkil etishga undovchi ko'nikma va malakalarni shakllantirish.
- 15) Intellektual salohiyatga egalik. Fikrlash, erudisiya, sezgirlik, ziyraklik, bashorat qila olish, kuzatuvchanlik, tasavvur, ijodkorlik malakalarini shakllantirish.
- 16) Irodaviylik. O'zaro muloqotda chidam, faoliyatni amalga oshirishda, maqsadlarga erishishda, o'zligini rivojlantirish.

17) Hissiylik. Ta’lim oluvchilarning o’y-kechinmalari, o’quvchilarning yosh-fiziologik xususiyatlarini e’tiborga olish, hamfikrlilik va ruhiy muhitni boshqara olish.

18) Qobiliyatlilik. Muayyan faoliyat yuzasidan layoqatlilik va ishni muvaffaqiyatli bajarishdagi o’ziga xos imkoniyatlarga egalik ko’nikma va malakalarini shakllantirish.

19) O’z-o’zini takomillashtira olishlik. O’z faoliyatini tahlil qilish va baholash, o’z individualligini rivojlantira olish.

20) Global fikrlashga egalik. Intellektual, hissiy, jismoniy, axloqiy va ruhiy xususiyatlarni rivojlantirish.

Talabalarni innovatsion kompetenligini o’rganish ularni amalga oshirishga tayyorligini rivojlantirish strategiyasini nazariy jihatdan asoslash va ishlab chiqish, tizim-faoliyat paradigmasida rivojlanish qonuniyatlarini, psixologik mexanizmlar va tamoyillarni ajratib ko’rsatish imkonini beradi.

Innovatsion faoliyat konsepsiyasini yaratish zarurligini birinchi navbatda ta’lim jarayonini optimallashtirish va samaradorligini oshirish, talabalar yangi, ijodiy faoliyatda mustaqilligini namoyon etishi bilan bog’liq to’siqlarni bartaraf etish muhimligida ko’ramiz.

Bizning fikrimizcha, ijodiy salohiyati past, o’zini-o’zi boshqarish, o’z-o’ziga ishonchi, qat’iyati, kognitiv faoliyatga rag’bati yetarlicha rivojlanmagan o’quvchilar o’qishni tamomlagandan so’ng innovatsiyalarda yuqori natijalarga erishish va mehnat bozorida raqobatbardosh bo’lish imkoniyati kam.

Biz ushbu ma’lumotlarni bevosita atrof-muhit sharoitlarini o’zgartirishga, talabalar ichki faolligini rag’batlantirishga, tegishli shaxsiy fazilatlarni va innovatsiyalarga tayyorlikni rivojlantirishga qaratilgan psixologik-pedagogik tadqiqotlar o’tkazishning eng muhim amaliy sharti deb hisoblaymiz. Biroq, bu natijalarni barcha holatlarga o’tkazish noto’g’ri, chunki ular maxsus tadqiqotlarni talab qiladi. Avvalo, turli ta’lim muassasalari va talabalar uchun ularning ishonchliligini tekshirish kerak. Bundan tashqari, talabalar innovatsion kompetenligini ta’lim muassasasi professor-o’qituvchilari faoliyati, uning innovatsion yo’nalishi, o’qituvchilarning talabalar innovatsion xulq-atvori va innovatsion tayyorgarligi ko’nikmalarini rivojlantirish istagi va ehtiyojlari bilan bog’liqligini e’tiborsiz qoldirib bo’lmaydi.

Shunday qilib, talabalar innovatsion kompetenligini rivojlantirish natijasi bir xil bo’lishi mumkin emas va ularni o’qitish va tarbiyalashning psixologik-pedagogik sharoitlariga, turli xil tashqi omillarning ta’siriga, shuningdek, ichki omillarga - qobiliyatlarga, qiziqishlarga, shaxsiy xususiyatlarga qarab o’zgaradi. Bu otalabalar innovatsion faoliyatga tayyorgarligini shakllantirish jarayonini qanday tashkil etish bo’yicha aniq psixologik-pedagogik tadqiqotlar olib borilgan taqdiridagina, ta’lim tashkilotlari o’zlarining ta’lim faoliyatida buni hisobga olishlari va zaruriy choralar ko’rishlari mumkin bo’lgan muhim pedagogik xulosani anglatadi.

Talabalar innovatsion kompetenligini psixologik asoslarini aniqlash vazifasi uning nazariy tamoyillari tizimini ochish bilan bog’liq. "Talabalar innovatsion kompetenligini" tushunchalarini tizimli-faollik yondashuvi nuqtai nazaridan ko’rib chiqish kerak, bu nafaqat innovatsion jarayonning alohida bosqichlarini tahlil qilish, balki uni har tomonlama o’rganishga o’tish imkonini beradi.

Odatiy turmush tarziga ta’sir qiluvchi stereotiplar og’riqli hodisalarga olib keladi, ta’limning barcha turlarini yangilashga to’siqinlik qiladi. Odamlarning zamonaviy ta’limdagi yangiliklarni qabul qilishni istamasligining sababi qulaylik, xavfsizlik va o’zini o’zi tasdiqlash uchun hayotiy ehtiyojlarni blok qilishdadir. Hamma ham nazariyani qayta o’rganish, imtihon topshirish, fikrini o’zgartirish, shaxsiy vaqt va pul sarflashga tayyor emas. Yangilash jarayoni boshlangandan so’ng, uni faqat maxsus texnikalar yordamida to’xtatish mumkin. Shuningdek, parallel amalga oshirish eski va yangi ta’lim jarayonining birgalikda mavjudligini, bunday sintezning samaradorligini tahlil qilishni nazarda tutadi. Ya’ni bir paytning o’zida ikki tomonla ta’lim usuli orqali jarayonni olib borish ancha sifat darajasini oshiradi.

Yuqoridagi ma’lumotlarga mustasno tarzida shuni taqidlab o’tish joizki, hozirgi davrda innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish muammolari ham yoq emas.

Ta’limdagi innovatsion texnologiyalar turli sabablarga ko’ra " sekinlashmoqda".

1. Ijodkorlik to’sig’i. Eski dasturlar bo’yicha ishlashga odatlangan o’qituvchilar hech narsani o’zgartirishni, o’rganishni va rivojlanishni xohlamaydilar. Ular ta’lim tizimidagi barcha yangiliklarga qarshi turadilar.

2. Konformizm. Oportunizm, rivojlanishni istamaslik, boshqalarning ko’ziga yomon ko’z bilan ko’rinishdan qo’rqish, kulgili tuyulishi tufayli o’qituvchilar g’ayrioddiy pedagogik qarorlar qabul qilishdan bosh tortadilar.

3. Shaxsiy tashvish. O’ziga ishonchsizlik, qobiliyatlar, kuchli tomonlar, o’zini past baholash, o’z fikrlarini ochiq aytishdan qo’rqish tufayli ko’plab o’qituvchilar ta’lim muassasasidagi har qanday o’zgarishlarga oxirgi imkoniyatgacha qarshilik ko’rsatadilar.

4. Fikrlashning qattiqligi. O'qituvchilari o'zlarining fikrlarini yagona, yakuniy, qayta ko'rib chiqilmaydigan deb bilishadi. Ular yangi bilim, ko'nikmalarni egallashga intilmaydilar, zamonaviy ta'lim muassasalaridagi yangi tendentsiyalarga salbiy munosabatda bo'lishadi.

Bundan tashqari, ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni joriy etishga to'sqinlik qiluvchi omillar orasida yetakchi o'rinlarni quyidagilar egallaydi:

- ta'lim muassasalarining kompyuter va elektron vositalar bilan yetarli darajada ta'minlanmaganligi (ayrim oliy o'quv yurtlarida barqaror internet mavjud emas, amaliy va laboratoriya ishlarini bajarish uchun elektron qo'llanmalar, uslubiy tavsiyalar yetarli emas);

- professor-o'qituvchilarning AKT sohasidagi malakasining yetarli emasligi;

- ta'lim muassasasi rahbariyatining o'quv jarayonida innovatsion

Hozirgi davrni jamiyatning barcha sohalari kabi talim sohasida ham katta va tezkor o'zgarishlar davri deb atash mumkin. Yangiliklarning turli ko'rinishlari mavjud. Yangiliklarning turlari asosan metodologik sabablarga kora ajratiladi.

Talabalarni innovatsion kompetentligini rivojlantirishda talim sohalari bir-biri bilan shu darajada uzviy bog'liqlik, bir sohada yangiliklar, istalgan boshqa sohada yangiliklarni vujudga keltiradi. Shuning uchun ta'limning ayrim komponentlarida yangiliklarning joriy etilishi, qo'llangan yangiliklarning umumiy samaradorligini aniqlashni talab etadi.

Tahlil. Bizning fikrimizcha, birinchi asosiy mezon bu yangilikning qanday muhitda joriy qilishga bog'liq. Ikkinchi mezon yangilikni qo'llashning yo'llari, uchinchi yangilik joriy qilish tadbirlarining kengligi va chuqurligi, to'rtinchi mezon - yangilikning vujudga kelishiga sabab bo'lgan asos.

Talabalarni innovatsion kompetentligini rivojlantirishda talimning qaysi sohasiga yangiliklarning kiritilishi va qo'llanilishiga qarab, birinchi mezonga quyidagi yangiliklarni kiritish mumkin: 1) ta'lim mazmunida, 2) texnologiyasida, 3) tashkil qilishda, 4) boshqarish tizimida.

Yangiliklarni joriy qilishning yo'llaridan qat'iy nazar ularni quyidagilarga ajratish mumkin:

a) tizimli, rejali, oldindan o'ylangan;

b) kutilmagan, oz-ozidan paydo bolgan, to'satdan paydo bo'lgan. Yangiliklarni joriy qilish tadbirlarining kengligi va chuqurligidan qat'iy nazar ularning quyidagi turlarini sanab o'tish mumkin:

a) ommaviy, katta, global, tizimli, keskin, asosli, muhim, jiddiy, chuqur va boshqalar;

b) qisman, kichik, mayda.

Yangilikning paydo bo'lish xususiyatiga qarab ularni quyidagicha birlashtirish mumkin: a) tashqi b) ichki.

Talabada o'zlashtirishga nisbatan motiv hosil bolsa, o'quv materialini tez va oson o'zlashtiradi. Ta'lim jarayoniga yangiliklarni joriy qilishda talabalarda motiv komponenti hosil qilish muhim ahamiyatga ega.

Talabalarni innovatsion kompetentligini rivojlantirishda motivlarni hosil qilishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

1. Berilgan bilim va ko'nikmalarning zarurligini tushuntirish;

2. Shaxsiy mas'uliyat hissini yaratish;

3. Talim jarayonida vaqtida talabalarning qiziqishini uygotish va saqlab turish;

4. Ortirilgan bilimlardan hayotda qanday foydalanish mumkinligini tushuntirish;

5. Ma'qullash, e'tirof etish, rag'batlantirish;

6. Sog'lom raqobat;

7. Olingan bilimlardan kelajakda talabalar qanday muvaffaqiyatlar qozonishlari mumkinligi haqida muloqot qilishga imkon berish;

8. Tanlash imkoniyatini yaratish.

Rus olimasi O.A. Kozireva o'z izlanishlarida talabalarni innovatsion kompetentligini rivojlantirishda kasbiy yetuklik darajalari va shakllanishini qiyoslab o'rgangan. Uning fikricha, kasbiy yetuklikning uchta darajasi mavjud bo'lib, ularning har biri “*anglanmagan kompetentsizlik* → *anglanilgan kompetentsizlik* → *anglangan kompetentlik*” tizimidagi kasbiy kompetentlik darajalarini belgilab beradi (1-jadvalga qarang).

Shuningdek, shaxsi shakllanishida innovatsion kompetentlik va kasbiy yetuklik kengroq yoritishda mutaxassis kompetentsiyalari klasteriga murojaat etish maqsadga muvofiqdir.

Kasbiy kompetentlikning bunday klasteri uch xil: faoliyatni; shaxslilikni; motivatsiyani tashkil qiluvchi kompetentsiyalar majmuida ko'rinadi.

Kasbiy yetuklik (professionalizm)ning darajalari	Kasbiy kompetentlik darajalari	
«Eng maqbul» (istiqbolli)	9	Anglangan kompetentlik («Men nima bilishim haqida bilaman»)
	8	Anglanilgan kompetentsizlik («Men bilmasligim haqida bilaman»)
	7	Anglanmagan kompetentsizlik («Men – hech narsa bilmasligim haqida, hech narsa bilmayman»)
«Eng muhim» «nomigagina»	6	Anglangan kompetentlik («Men nima bilishim haqida bilaman»)
	5	Anglanilgan kompetentsizlik («Men bilmasligim haqida bilaman»)
	4	Anglanmagan kompetentsizlik («Men – hech narsa bilmasligim haqida, hech narsa bilmayman»)
«Yashirin, ammo yuzaga chiqishi mumkin bo’lgan» (ilmi-tarbiyali)	3	Anglangan kompetentlik («Men nima bilishim haqida bilaman»)
	2	Anglanilgan kompetentsizlik («Men bilmasligim haqida bilaman»)
	1	Anglanmagan kompetentsizlik («Men – hech narsa bilmasligim haqida, hech narsa bilmayman»)

Biz tomondan o’tkazilgan dastlabki tadqiqotlar natijasiga ko’ra, *kompetentlik* – inson faoliyatini uning eng yaxshi bajargan amallariga nisbatan baholashda yordam beradigan standart, deb aytish mumkin. Sababi, bunday baholanish, o’z navbatida, o’zgarishlar sharoitida tashkilot (iqtisodiyot subyektlari) faoliyatini yaxlit holda ijobiy tomonga o’zgarishiga olib keladi. Oxir oqibat, muvaffaqiyat egalari – bu tashkilot, jamiyat va muayyan shaxslar hisoblanishadi.

Umuman olganda, kompetentsiya *muayyan shaxs* doirasida o’rganilganda, insonning rivojlantirishi zarur bo’lgan kuchli tomonlarini, sifatlarini yuzaga chiqarishda va ishni eng yaxshi, samarali bajarish mumkin bo’lgan usullarini aniqlashda yordam bersa, *tashkilot* miqyosida esa hamkasblarni o’qitishga bo’lgan ehtiyojlarni va berilgan maslahatlar natijasida to’lmay qolgan «bo’shliq»larni to’ldirishda asqotadi.

Xulosa. Talabalarni innovatsion kompetentligini muayyan shaxs doirasida o’rganilganda, insonning rivojlantirishi zarur bo’lgan kuchli tomonlarini, sifatlarini yuzaga chiqarishda va ishni eng yaxshi, samarali bajarish mumkin bo’lgan usullarini aniqlashda yordam bersa, tashkilot miqyosida esa hamkasblarni o’qitishga bo’lgan ehtiyojlarni va berilgan maslahatlar natijasida to’lmay qolgan «bo’shliq»larni to’ldirishda asqotadi.

Talabalarni innovatsion kompetentligi ta’lim-tarbiya jarayonining uzluksizligini ta’minlash uchun, ya’ni muayyan kishilar (guruhlar) malakasini oshirish va ish(o’qish)-faoliyatini yaxshilash, yuksak ma’naviyatli shaxs shakllanishida o’ziga xos indikator sifatida xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Abulxanova-Slavskaya, K.A. Faoliyat va shaxsiyat psixologiyasi / K.A. Abulxanova-Slavskaya. - M. : Ta’lim, 1980. - 480 b.
2. Vygotskiy, L.S. Pedagogik psixologiya / L. S. Vygotskiy. - M.: Pedagogika, 1991. - 480 b.
3. Sayidahmedov N.S., Abdurahimov S.A. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya: monografiya.-T., A. Beruniy nomli TDTU Qoshidagi OIPI, 2009.-327 b.
4. Nishonaliev U.N., Tolipov O.K., Sharipov Sh.S. Kasbiy talim pedagogika. Ohkuv foydalanish.-Toshkent: TDPU, 2007.-260.b.
5. Lazarev V.S. O’qituvchining innovatsion faoliyati / V.S. Lazarev // Maktabda tajriba va innovatsiya.-2008.-No2.-P. 2-8.

6. Prigojin A.I. Innovatsion jarayonlarda tabiiy-sun'iy / A.I. Prigojin / Ijtimoiy fanlar va zamonaviylik. - 2013. - № 3. – 116-130-betlar.
7. Bordovskaya N.V. Zamonaviy oliy pedagogik ta'limning akademik yo'naltirilgan modeli / N. V. Bordovskaya / Inson va ta'lim. 2015 yil. 1-son (42). 4-10-betlar.
8. Grebenkina L.K., Demidova S.B. Innovatsion oliy ta'limning yetakchi gumanistik g'oyalari / L.K. Grebenkina, S.B.Demidova / To'plamda: 21-asr fan va ta'limi, X xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. – 2006. – B. 100-103.
9. Oliy ta'limda faol va interaktiv ta'lim texnologiyalari (darslarni o'tkazish shakllari): darslik / komp. T.G. Muxin. - Nijniy Novgorod: NNGASU, 2013. - 97 p.
10. Zaxarova, I.G. Ta'limda axborot texnologiyalari: oliy ta'lim uchun darslik. darslik muassasalar / I.G. Zaxarov. - M.: "Akademiya", 2008., 338-bet
11. Козырева О.А. Феноменология профессиональной компетентности учителя / Educational Technology & Society. – 2008. – № 11(2).